

Ziyodullaev Nurbek Komiljon o‘g’li

Toshkent davlat yuridik universiteti, “Xalqaro tijorat huquqi”

yo ‘nalishi 1-kurs magistranti

ziyodullaevnurbek1@gmail.com

Annostatsiya: Ushbu maqola Jahon Savdo Tashkiloti (JST) qoidalari doirasida antidemping, subsidiya va kafolatlar bo‘yicha xalqaro tijoratda amal qilinadigan asosiy tamoyillarni ko‘rib chiqadi. JST va GATT-1994 kelishuvlari bo‘yicha xalqaro savdodaadolat va tenglikni ta’minlash maqsadida yaratilgan qoidalar va bu sohadagi dolzarb masalalar haqida babs yuritiladi. Shuningdek, ushbu qoidalar asosida amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari xorijiy mutaxassislar tomonidan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: antidemping, subsidiya, kafolatlar, JST, xalqaro savdo, GATT 1994,adolatli savdo

Abstract: This article examines the key principles of antidumping, subsidies, and safeguards within the framework of World Trade Organization (WTO) regulations. It discusses the rules established under WTO and the GATT 1994 agreement to ensure fairness and equity in international trade, along with current challenges in this field. The article also analyzes practical issues and proposed solutions from foreign experts.

Key words: antidumping, subsidies, safeguards, WTO, international trade, GATT 1994, fair trade

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные принципы антидемпинга, субсидий и гарантий в рамках правил Всемирной торговой организации (ВТО). Обсуждаются правила, разработанные в соответствии с ВТО и соглашением ГATT 1994 года для обеспечения справедливости и равенства в международной торговле, а также актуальные вопросы в этой области. Также анализируются проблемы,

Ключевые слова: антидемпинг, субсидии, гарантии, ВТО, международная торговля, ГATT 1994, справедливая торговля

I. Kirish

Jahon Savdo Tashkiloti (JST) hozirgi kunda global iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadigan xalqaro tashkilot hisoblanadi. JSTning asosiy maqsadi xalqaro savdoni barqaror va adolatli qilish hamda davlatlar o‘rtasida iqtisodiy aloqalarni kuchaytirishdir. JSTning antidemping, subsidiya va kafolatlar bo‘yicha qoidalari xalqaro savdo jarayonlarida teng raqobatni ta’minlash uchun joriy etilgan bo‘lib, ushbu maqolada aynan shu qoidalari va ular bilan bog‘liq muammolar ko‘rib chiqiladi. JST qoidalari, xususan, GATT 1994 kelishuvlari, savdo munosabatlarida tenglik va adolatni saqlash maqsadida davlatlar o‘rtasida o‘zaro majburiyatlarni belgilaydi.

Antidemping choralarining maqsadi xorijiy kompaniyalar tomonidan demping amaliyotlarini oldini olish, ya’ni ular tomonidan o‘z mamlakatidan tashqarida tovarlarni arzon narxda sotishiga qarshi kurashishdir. Subsidiya esa davlatlar tomonidan kompaniyalar uchun ajratilgan moliyaviy yordam bo‘lib, ushbu mablag‘lar ba’zida xalqaro savdodaadolatsizlikka olib kelishi mumkin. JST subsidiya siyosatini tartibga soluvchi qoidalari joriy etgan bo‘lib, ular subsidiya orqali xorijiy kompaniyalarga bo‘lgan nohaq yordamni cheklashga qaratilgan. Kafolat choralar esa savdo-sotiqa davlatlar o‘z mahsulotlarini himoya qilish uchun kiritgan vaqtinchalik cheklardir. Bu choralar ichki sanoatning tashqi bozordan keladigan bosimlar va xavflarga qarshi muvozanatini ta’minlaydi.

Yuqoridagi choralarining har biri xalqaro savdoda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning samaradorligi va adolatli tatbiq etilishi JST tomonidan diqqat bilan nazorat qilinadi. JST qoidalari bo‘yicha ishlab chiqilgan antidemping, subsidiya va kafolatlar tizimi savdoda teng raqobatni qo‘llab-quvvatlaydi, ammo ushbu tizim amaliyotda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shu sababli JST

qoidalari doirasida xalqaro savdoni yanada adolatli va barqaror qilish yo'llari tadqiq qilinmoqda.

II. Tatqidot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda JSTning antidemping, subsidiyalar va kafolat choraliga oid qoidalari tahlil qilinadi. Tadqiqot asosan huquqiy hujjatlar, JST tomonidan chiqarilgan hisobotlar va tegishli xalqaro ilmiy maqolalarni o'rganishga asoslangan. Maqsad – JST tomonidan belgilangan qoidalari va xalqaro savdo munosabatlariiga ta'sirini tahlil qilish, shuningdek, ushbu qoidalarning rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlar uchun iqtisodiy ahamiyatini aniqlashdir. Ma'lumotlar manbasi: Tadqiqotda birlamchi manba sifatida JST va GATT hujjatlaridan, xususan, ***1994-yilgi GATT va Antidemping kelishuvidan foydalilaniladi***. JST qoidalaring amaliyotdagi tatbiqini aniqlash uchun JST hisobotlari va qarorlari o'rganildi. Ushbu tadqiqotda shuningdek, JSTga a'zo davlatlarning antidemping va subsidiya siyosati va ushbu siyosatning xalqaro savdoga ta'siri haqidagi ilmiy adabiyotlardan ham foydalilaniladi. Adabiyotlar tahlili: Tadqiqotda JST qoidalari bo'yicha mavjud ilmiy va amaliy maqolalar tahlil qilinadi. Buning uchun JST va antidemping mavzusidagi yetakchi olimlarning ishlariga murojaat qilindi. Jumladan, Sykes (2003) tomonidan subsidiyalar va subsidiyalarga qarshi choralarning iqtisodiy ta'siri, Bagwell va Staiger (1999) ning ***GATT qoidalaring iqtisodiy nazariyasi*** bo'yicha ishlari va Lester, Mercurio va Bartels (2008) tomonidan ***Jahon Savdo Tashkilotining huquqiy me'yorlari*** asos qilib olindi. Ushbu ilmiy adabiyotlar JST qoidalaring rivojlanayotgan davlatlarga ta'siri va xalqaro savdoda raqobatni tartibga solishdagi rolini yanada aniqlashga yordam beradi. Tahlil usuli: Tadqiqot huquqiy va iqtisodiy tahlil usullariga asoslangan. Huquqiy tahlil yordamida JSTning antidemping va subsidiya siyosati bo'yicha qoidalari o'rganilib, ushbu qoidalarning xalqaro savdo muhitiga ta'siri aniqlanadi. Iqtisodiy tahlil orqali JST qoidalaring rivojlanayotgan davlatlarga ta'siri baholanadi. Xususan, JST qoidalaring rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar uchun qanday farq qilishi, ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri va milliy sanoatni himoya qilishdagi roliga diqqat qaratiladi. Holatlar tahlili: Tadqiqot doirasida JST antidemping choralari

bo‘yicha ko‘rib chiqqan muhim holatlar tahlil qilinadi. Masalan, Hindiston, Braziliya va Xitoy tomonidan JST qoidalariga tayanib olib borilgan choralarga oid ishlar o‘rganildi. Ushbu holatlar JST qoidalarining amaliyotdagi qo‘llanishini yoritib, qoidalarning samaradorligini baholash imkonini beradi.

III. Natijalar

Xalqaro savdo jarayonida JST va GATT tomonidan yaratilgan antidemping, subsidiyalar va kafolat choralari tizimi davlatlar uchun adolatli va teng raqobat sharoitlarini yaratishga xizmat qiladi. Bu qoidalari davlatlarga milliy sanoatlarini himoya qilishda, kutilmagan iqtisodiy o‘zgarishlarga javob berishda va savdo siyosatida barqarorlikni ta’minalashda yordam beradi. JST kelishuvlari xalqaro savdoda muhim o‘rin tutib, GATT shartnomalarida belgilangan maqsadlarni amalga oshirishga intiladi. Ammo bu qoidalari davlatlar uchun samarali bo‘lsa-da, ularning qo‘llanilishi bilan bog‘liq muammolar va cheklovlar mavjud.

JST qoidalaring xalqaro savdoga ta’siri

JST qoidalari xalqaro savdoda davlatlarning teng ishtirokini ta’minalash uchun mo‘ljallangan. Antidemping qoidalari, xususan, bir davlat boshqa davlatning ichki bozorida mahsulotlarini adolatsiz narxlarda sotgan taqdirda zaruriy choralarni qo‘llash imkonini beradi. Bu qoidalari JSTga a’zo davlatlarga dempingning oldini olish va o‘z ichki ishlab chiqaruvchilarini chet el raqobatidan himoya qilish imkoniyatini beradi. Masalan, “AQSh va Yevropa Ittifoqi davlatlari JSTning antidemping qoidalardan foydalanib, Xitoy kabi davlatlardan olib kiriladigan mahsulotlarga qarshi chora-tadbirlar qo‘llab kelmoqda. Bu esa JST qoidalaring amaliyotdagi keng tatbiq etilishini ko‘rsatadi.”¹

Subsidiya va kafolat choralari ham JST qoidalari doirasida davlatlarning xalqaro savdoda barqarorligini ta’minalashda katta ahamiyatga ega. JSTning subsidiya va kompensatsion choralarga doir kelishivi davlatlar o‘rtasida adolatli raqobatni saqlash uchun subsidiya turlarini tartibga soladi. JST subsidiyalarni “ruxsat etilgan” va “taqiqlangan” toifalarga ajratib, davlatlar tomonidan o‘z ichki

¹ https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/gatt47.pdf

sanoatini qo'llab-quvvatlashda noto'g'ri usullarni cheklaydi. Shu bilan birga, "subsidiyalarni boshqa davlatlarga zarar yetkazmasdan qo'llash imkonini yaratadi. JST subsidiyalarning xalqaro savdoda noto'g'ri foydalanilishining oldini olish uchun davlatlarga kompensatsion choralar kiritish imkonini beradi"²"

Rivojlanayotgan davlatlar "JST qoidalarini xalqaro savdoda ishtirok etish va o'z ichki iqtisodiy barqarorligini ta'minlash uchun imkoniyat sifatida ko'radi. Antidemping va subsidiyalar bo'yicha qoidalar rivojlanayotgan davlatlarga xalqaro bozorda teng imkoniyatlar yaratish uchun xizmat qiladi. Masalan, Hindiston va Xitoy JSTning antidemping qoidalaridan foydalanib, o'z ichki bozorlari va mahalliy ishlab chiqaruvchilarini rivojlangan davatlarning arzon mahsulotlaridan himoya qilishda faol ishtirok etmoqda"³"

Rivojlanayotgan davlatlar JST subsidiyalar qoidalaridan foydalanib, o'z iqtisodiy o'sishini qo'llab-quvvatlash imkoniyatiga ega. JST tomonidan taqiqlangan subsidiyalar rivojlanayotgan davlatlar uchun muayyan cheklovlar yaratadi, chunki bu davlatlar o'z milliy sanoatini rivojlantirish uchun ko'p hollarda davlat yordamiga ehtiyoj sezadi. Shu bilan birga, "JST subsidiyalarni ruxsat etilgan va taqiqlangan kategoriyalarga ajratib, rivojlanayotgan davatlarning o'z iqtisodiy siyosatlarini amalga oshirish imkoniyatlarini cheklashni kamaytirishga harakat qilmoqda. Masalan, Afrika davlatlari JSTning subsidiyalar qoidalari doirasida o'z qishloq xo'jalik mahsulotlarini rivojlantirishda yordam ko'rsatish imkoniyatlarini saqlab qolmoqda, bu esa JST qoidalarining rivojlanayotgan davlatlarga adolatli yondashuvini ifodalaydi"⁴".

JST qoidalarining amaliy muammolarini

JST qoidalarining amaliy qo'llanilishida muayyan muammolar va cheklovlar ham mavjud. Rivojlangan davlatlar ko'pincha JST qoidalaridan foydalanib, rivojlanayotgan davatlardan olib kiriladigan mahsulotlarga qarshi chora-tadbirlarni keng qo'llashadi. Bu holat JST qoidalarining rivojlanayotgan

² Grossman, G. M., & Horn, H. (2012). "The Political Economy of the World Trading System." Princeton University page-146

³ Sykes, A. O. (2003). *The Economics of the World Trading System*. University of Chicago Press page-89

⁴ Xalqaro iqtisodiy huquq. Darslik. Mas'ul muharrir y.f.n., prof. G.Yuldasheva // Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2019. – 59 bet

davlatlar uchun cheklovchi ta'sirga ega bo'lishiga olib kelishi mumkin. Masalan, AQSh va Yevropa Ittifoqi rivojlanayotgan davlatlarning arzon mahsulotlariga qarshi antidemping choralarini keng qo'llash orqali o'z ichki ishlab chiqaruvchilarini himoya qilishga harakat qiladi.

Shu bilan birga, subsidiyalarga oid qoidalar rivojlanayotgan davlatlar uchun ayrim cheklovlarni keltirib chiqarishi mumkin. JST subsidiyalarning xalqaro savdoda noto'g'ri foydalanilishini oldini olish uchun qat'iy qoidalar ishlab chiqqan bo'lsa-da, bu qoidalar ba'zida rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy o'sishini cheklashi mumkin. "JST subsidiyalarni nazorat qilish orqali rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy siyosatini muvozanatlashga harakat qilsa ham, rivojlangan davlatlar subsidiyalardan foydalanishda keng imkoniyatlarga ega. Masalan, AQSh va Yevropa Ittifoqi o'z qishloq xo'jalik sektorlarini qo'llab-quvvatlash uchun keng miqyosda subsidiya ajratib kelmoqda va bu subsidiyalar JST tomonidan nazorat qilinishi qiyin bo'lib qolmoqda"⁵

JST qoidalari global savdoda davlatlararo teng sharoitlarni ta'minlash uchun doimiy ravishda rivojlantirilmoqda. JST tomonidan antidemping, subsidiyalar va kafolat choralar bo'yicha qoidalar xalqaro savdoda raqobat muhitini mustahkamlash uchun ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularning amaliyotda rivojlanishi JST tizimining kelajakdagi barqarorligiga bog'liq. JST qoidalaring kelajakdagi natijalari davlatlararo savdodaadolat va tenglikni saqlash uchun qanday amalga oshirilishiga bog'liq bo'ladi. Masalan, JST rivojlanayotgan davlatlarga subsidiyalarga oid qoidalarni tatbiq qilishda ko'maklashishi va davlatlararo teng sharoitlarni ta'minlashda ko'proq moslashuvchanlikka ega bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, JST va GATT tomonidan yaratilgan antidemping, subsidiyalar va kafolat choralar xalqaro savdodaadolat va barqarorlikni ta'minlash uchun muhim vositalar hisoblanadi. JST qoidalari rivojlanayotgan

⁵ Jackson, J. H. (2000). *The World Trading System: Law and Policy of International Economic Relations*. Cambridge University Press. p-239

davlatlarga iqtisodiy barqarorlik va xalqaro savdoda teng imkoniyatlar yaratish uchun imkoniyat beradi. Biroq JST qoidalaring amaliy tatbiqi davlatlar orasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisman keltirib chiqarishi va rivojlangan davlatlarning o‘z iqtisodiy siyosatini himoya qilishda keng imkoniyatlarga ega bo‘lishi sababli murakkab holatlar yuzaga kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, JST qoidalaring kelajakdagi rivojlanishi xalqaro savdoda adolat va tenglikni ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

IV. Muhokama

Jahon Savdo Tashkiloti (JST) va uning asosiy hujjalardan biri bo‘lgan 1994-yilgi GATT (Tariflar va Savdo bo‘yicha Umumiy Kelishuv) xalqaro savdoda barqarorlik va teng raqobat muhitini yaratishda muhim vositalardan hisoblanadi. JST va GATT qoidalari davlatlarning ichki bozorlari va xalqaro savdo muhitida o‘zaro teng ishtirok etishlarini ta’minlashga qaratilgan. JST qoidalari orasida antidemping, subsidiyalar va kafolat choralariga doir kelishuvlar katta ahamiyatga ega, chunki ular xalqaro savdo siyosatini tartibga solishda davlatlarga milliy manfaatlarni himoya qilish imkonini beradi. Bu qoidalari davlatlararo savdoda adolatli muhitni yaratishga yordam beradi, ammo ularning amaliy qo‘llanilishi ko‘plab savollarni keltirib chiqaradi va bu JSTning adolatli savdo tizimini yaratish maqsadlarini o‘z ichiga oladi.

Antidemping va subsidiyalar JST qoidalari doirasida davlatlararo savdoni tartibga solishning asosiy vositalardan biridir. “JST qoidalari ko‘ra, demping – bir davlat boshqa davlatning ichki bozorida mahsulotini o‘z qiymatidan pastroq narxlarda sotishi – adolatli savdo shartlariga zid keladi, chunki bu holat boshqa davlatning ishlab chiqaruvchilariga zarar yetkazishi mumkin. Antidemping qoidalari davlatlarga o‘z ichki bozorlarini himoya qilish uchun maxsus to‘lovlarini kiritish huquqini beradi.”⁶ JSTning Antidemping bo‘yicha kelishivi davlatlarga o‘z mahsulotlarini noteng raqobatdan himoya qilish imkonini berib, xalqaro savdoda o‘zaro teng imkoniyatlar yaratishga yordam beradi.

⁶ <https://www.wto.org>

JST qoidalarining yana bir muhim jihatni subsidiya va kafolat choralaridir.

Subsidiya qoidalari davlatlarning o‘z sanoatiga iqtisodiy yordam ko‘rsatish imkoniyatlarini cheklaydi. Agar bir davlat o‘z mahsulotlariga subsidiya ajratib, ularni eksport qiladigan bo‘lsa, bu holat boshqa davlatlarga iqtisodiy zarar yetkazishi mumkin. JSTning Subsidiya va Kompensatsion Choralar bo‘yicha kelishuvi davlatlargaadolatli raqobat muhitini saqlash uchun subsidiya choralarini tartibga solish imkonini beradi. JST subsidiyalarni “ruxsat etilgan”, “taqiqlangan” va “cheklovchi” subsidiya turlari sifatida tasniflaydi va davlatlar orasida savdo notejisligiga olib keluvchi subsidiya turlariga qarshi chora ko‘rishni nazarda tutadi. Shu tarzda JST subsidiyalarga qarshi qoidalari orqali xalqaro savdoda milliy ishlab chiqaruvchilarningadolatli raqobat imkoniyatlarini ta’minlashga harakat qiladi.

Kafolat choralariga kelsak, JST qoidalari davlatlarga ichki bozorda kutilmagan va favqulodda o‘zgarishlar natijasida milliy ishlab chiqaruvchilarga zarar yetkazilishi xavfi mavjud bo‘lsa, vaqtinchalik cheklovlar joriy qilish imkoniyatini beradi. GATTning 1994-yilgi qoidalari bo‘yicha kafolat choralarini tatbiq etish davlatlarga kutilmagan sharoitlarda ichki bozorni himoya qilishga yordam beradi. JSTning bu boradagi yondashuvi davlatlarga o‘z iqtisodiy barqarorligini saqlash uchun favqulodda vaziyatlarda cheklovlar qo‘llash imkoniyatini beradi. Bu choralarining to‘g‘ri tatbiq etilishi global savdodaadolat va barqarorlikka xizmat qiladi va JST tomonidan xalqaro savdoda teng sharoitlar yaratish maqsadlariga mos keladi .

Antidemping choralar JST tizimida muhim ahamiyatga ega va davlatlarga ichki bozorni noteng raqobatdan himoya qilish imkonini beradi. Antidemping qoidalaring amaliy tatbiqi rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar uchun juda katta ahamiyatga ega. Masalan, “Hindiston va Xitoy kabi davlatlar JSTning antidemping qoidalardan foydalangan holda o‘z milliy bozorlarini himoya qilishda muvaffaqiyat qozonmoqda. Hindiston JST qoidalardan foydalangan holda Xitoydan olib kirilayotgan arzon mahsulotlarga qarshi antidemping to‘lovlari qo‘llagan va bu orqali o‘z ichki ishlab

chiqaruvchilarini himoya qilgan”⁷. Xitoy esa o‘z navbatida antidemping qoidalaridan foydalangan holda o‘z milliy sanoatini chet el raqobatidan himoya qilish uchun chora-tadbirlar ko‘rmoqda.

Rivojlangan davlatlar ham antidemping qoidalaridan foydalanib, o‘z iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga intiladi. Masalan, AQSh va Evropa Ittifoqi davlatlari JST qoidalaridan foydalanib, rivojlanayotgan davlatlardan olib kiriladigan mahsulotlarga qarshi antidemping to‘lovlarini kiritgan. Bu esa JST qoidalarining ba’zan rivojlanayotgan davlatlar uchun cheklovchi ta’sirga ega bo‘lishini ko‘rsatadi. Rivojlangan davlatlar antidemping qoidalarini keng qo‘llash orqali xalqaro savdoda o‘z manfaatlarini himoya qilishda va o‘z ichki bozorlari raqobatini boshqarishda foydalangan.

Subsidiya va kafolat choralar JST qoidalarida davlatlararo savdoda adolatni saqlashning yana bir vositasi sifatida qaraladi. JST subsidiyalarga oid qoidalari davlatlarga ichki sanoatni qo‘llab-quvvatlash va xalqaro savdoda raqobatniadolatli shakllantirish imkonini beradi. JSTga ko‘ra, taqiqlangan subsidiyalar davlatning xalqaro bozorlarda o‘z mahsulotlarini noto‘g‘ri yo‘l bilan arzon narxlarda sotishiga olib keladi. Bunday subsidiyalar JST qoidalariga zid kelib, boshqa davlatlarga iqtisodiy zarar yetkazishi mumkin .

Kafolat choralar esa milliy ishlab chiqaruvchilarga xavf tug‘diruvchi holatlarda favqulorra chora sifatida qo‘llaniladi. JST kafolat choralar davlatlarga iqtisodiy muvozanatni saqlash va ichki ishlab chiqaruvchilarga ko‘maklashish uchun vaqtinchalik cheklovlarini joriy qilish imkonini beradi. Masalan, rivojlanayotgan davlatlarda kutilmagan iqtisodiy o‘zgarishlar natijasida ichki bozorda mahsulotlarning haddan tashqari ko‘payishi holatlari kuzatilsa, JST qoidalari bo‘yicha vaqtinchalik cheklovlar tatbiq etilishi mumkin. Buning natijasida ichki ishlab chiqaruvchilar o‘zlarining raqobatbardoshligini saqlab qolishi va ichki bozorda barqarorlikni ta’minlashi mumkin.

JSTning antidemping va subsidiyalar qoidalari rivojlanayotgan davlatlar uchun muhim himoya choralarini yaratadi. Rivojlanayotgan davlatlar o‘z

⁷ Jackson, J. H. (2000). *The World Trading System: Law and Policy of International Economic Relations*. Cambridge University Press. 287 page

iqtisodiy imkoniyatlarini saqlash va milliy manfaatlarini himoya qilishda JST qoidalariga tayanadi. Xitoy va Hindiston kabi davlatlar JSTning antidemping qoidalaridan foydalangan holda o‘z ichki bozorlari va mahalliy ishlab chiqaruvchilarini chet el raqobatidan himoya qilmoqda. Bu davlatlar xalqaro savdoda teng sharoitlarda ishtirok etish uchun JST qoidalariga tayanib, iqtisodiy barqarorlik va rivojlanishni ta’minlashga harakat qiladi.

JST qoidalarining global savdoga ta’siri

JST qoidalari global savdoda davlatlarning o‘zaro teng huquqli ishtirokini ta’minlash va adolatli savdo tizimini yaratishga xizmat qiladi. JST orqali antidemping va subsidiyalar qoidalarining tatbiqi davlatlarga milliy manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu xalqaro savdodaadolat va barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi. Biroq, JST qoidalari ba’zida rivojlanayotgan davlatlar uchun chekllovchi ta’sirga ega bo‘lishi ham mumkin, chunki rivojlangan davlatlar bu qoidalardan foydalanib, o‘z iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishda keng imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

V. Xulosa

Jahon Savdo Tashkiloti (JST) va uning GATT (1994) kelishuvi xalqaro savdodaadolat va barqarorlikni ta’minlash uchun zamonaviy savdo tizimining asosi sifatida xizmat qiladi. JST qoidalari va GATT kelishuvlari antidemping, subsidiya va kafolat choralar bo‘yicha qabul qilingan qoidalalar davlatlararo savdo munosabatlarini tartibga solib, ichki bozorlarni arzon,adolatsiz savdo oqibatlaridan himoya qilishga qaratilgan. JST qoidalari davlatlarga xalqaro savdoda muvozanat va tenglikni saqlash imkonini beradi, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarga iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatini yaratadi

Shunga qaramasdan, JST qoidalarining amaliy tatbiqi va ta’sir doirasi rivojlanayotgan davlatlar uchun qiyinchilik tug‘diradi. Antidemping va subsidiya qoidalari ko‘pincha rivojlangan davlatlar tomonidan o‘z iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida foydalaniladi. Bu holat rivojlanayotgan davlatlarning ichki bozorlarini zaiflashtirishi mumkin, chunki JST qoidalari ularga kamroq subsidiya ajratish imkonini beradi. Shu sababli, JST tizimida rivojlanayotgan

davlatlar manfaatlariga ko‘proq moslashtirilgan va adolatli yondashuvni joriy etish zarur. JST kelishuvlarini rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotini qo‘llab-quvvatlash uchun yanada moslashuvchan qilish taklif qilinmoqda.

JST va GATT kelishuvlari kelgusida rivojlanib, davlatlararo teng sharoitlarni ta’minlash uchun moslashuvchan va adolatli tizim sifatida rivojlanishi kerak. JST qoidalari subsidiyalar va antidemping choralar bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun hamon ishlanmalarni talab qiladi. Masalan, “JST rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar uchun subsidiyalar siyosatini qayta ko‘rib chiqishi va rivojlanayotgan davlatlarga subsidiyalarni kengroq qo‘llash imkoniyatini berishi mumkin. Bu o‘z navbatida JST tizimida teng imkoniyatlar yaratib, global savdoda adolatli raqobat muhitini yanada mustahkamlashga olib kelishi mumkin⁸”.

Xulosa qilib aytganda, JST qoidalari xalqaro savdoda adolat va tenglikni ta’minlashga qaratilgan, ammo rivojlanayotgan davlatlar uchun cheklovchi ta’sirga ega bo‘lishi mumkin. JST va GATT tizimlari davlatlararo savdoda integratsiyani kuchaytirishga yordam beradi va iqtisodiy barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi. JST qoidalaring kelajakdagi rivojlanishi xalqaro savdoda adolat va tenglikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi va bu davlatlarning iqtisodiy farovonligini oshirishga yordam beradi. JST tizimi rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy manfaatlarini hisobga olgan holda takomillashtirilishi lozim, bu esa xalqaro savdoda adolat va tenglikni mustahkamlash uchun samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalqaro iqtisodiy huquq. Darslik. Mas’ul muharrir y.f.n., prof. G.Yuldasheva // Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2019. – 186 bet
2. Jackson, J. H. (2000). *The World Trading System: Law and Policy of International Economic Relations*. Cambridge University Press.
3. WTO (2019). "Trade and Development: Recent Trends and Implications for Developing Countries." World Trade Organization.

⁸ Xalqaro iqtisodiy huquq. Darslik. Mas’ul muharrir y.f.n., prof. G.Yuldasheva // Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2019. 67-bet

4. Grossman, G. M., & Horn, H. (2012). "The Political Economy of the World Trading System." Princeton University.
5. Bown, C. P., & Hoekman, B. M. (2005). "Trade and Development: International Trade Debates and Implications for Developing Countries." Brookings Institution.
6. Sykes, A. O. (2003). *The Economics of the World Trading System*. University of Chicago Press. [<https://www.press.uchicago.edu>]
7. WTO.org